

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MUMTOZ ADABIYOT VA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'ZBEK ADABIY TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Danaboyeva Gulimoh Muxtorqul qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tadqiqotchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodining o'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni, ular o'rtasidagi mushtaraklik va o'zaro ta'sir masalalari tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida folklor an'analari, xalqona obrazlar, syujet va motivlar hamda mumtoz poetika tamoyillarining badiiy tafakkurga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, mumtoz va folklor an'alarining keyingi davr o'zbek adabiyotida davom etishi, ularning yangi ijtimoiy-estetik mazmun bilan boyishi Shuhrat ijodi misolida qisqacha ko'rib chiqiladi. Adib asarlarida xalqona obraz va motivlar, milliy badiiy tafakkur hamda mumtoz adabiyotga xos poetik unsurlarning uyg'unlashuvi an'ana va novatorlik munosabati nuqtai nazaridan baholanadi. Maqolada mumtoz va xalq adabiyoti an'alarining uzviy aloqasi o'zbek adabiy tafakkurining milliy-estetik xususiyatlarini belgilagan muhim omillardan biri ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi, folklor, adabiy tafakkur, milliy estetika, adabiy an'ana, xalqona obraz, motiv, syujet, poetika, an'ana va novatorlik, badiiy sintez.

РОЛЬ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ МЫСЛИ

Данабоева Гулимох Мухторкул кизи

Джизакский государственный педагогический университет, исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются роль классической литературы и устного народного творчества в развитии узбекской литературной мысли, их общие черты и взаимное влияние. Освещается воздействие фольклорных традиций, народных образов, сюжетов и мотивов, а также принципов классической поэтики на художественное мышление в процессе формирования и развития узбекской литературы. Кроме того, на примере творчества Шухрата кратко рассматриваются преемственность классических и фольклорных традиций в узбекской литературе последующих периодов и их обогащение новым социально-эстетическим содержанием. Сочетание народных образов и мотивов, национального художественного мышления и поэтических элементов, характерных для классической литературы, в произведениях писателя оценивается с точки зрения соотношения традиции и новаторства. Обосновывается, что органическая взаимосвязь традиций классической и народной литературы является одним из важнейших факторов, определивших национально-эстетические особенности узбекской литературной мысли.

Ключевые слова: классическая литература, устное народное творчество, фольклор, литературная мысль, национальная эстетика, литературная традиция, народный образ, мотив, сюжет, поэтика, традиция и новаторство, художественный синтез.

THE ROLE OF CLASSICAL LITERATURE AND ORAL FOLK ART IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK LITERARY THOUGHT

Danaboyeva Gulimoh Muxtorqul qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Researcher.

Abstract.

This article analyzes the role of classical literature and oral folk art in the development of Uzbek literary thought, focusing on their common features and mutual influence. It examines the impact of folklore traditions, folk imagery, plots and motifs, as well as the principles of classical poetics, on artistic thought in the formation and development of Uzbek literature. In addition, the continuity of classical and folklore traditions in later Uzbek literature and their enrichment with new socio-aesthetic content are briefly considered through the example of Shuhrat's works. The integration of folk images and motifs, national artistic thought, and poetic elements characteristic of classical literature in the writer's works is evaluated from the perspective of the relationship between tradition and innovation. The article argues that the organic interconnection

between the traditions of classical and folk literature is one of the key factors that shaped the national and aesthetic characteristics of Uzbek literary thought.

Keywords: classical literature, oral folk art, folklore, literary thought, national aesthetics, literary tradition, folk imagery, motif, plot, poetics, tradition and innovation, artistic synthesis.

Kirish. O'zbek adabiy tafakkuri ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida turli adabiy-estetik manbalar ta'sirida shakllangan murakkab va ko'p qatlamli hodisadir. Uning milliy xususiyatlarini belgilashda, avvalo, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning o'zaro munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari, orzu-intilishlari va hayotiy tajribasi dastlab og'zaki irod namunalarida badiiy ifodasini topgan bo'lsa, keyinchalik ular yozma adabiyotda muayyan janr, obraz, motiv va poetik shakllar vositasida murakkablashib, yangi estetik mazmun bilan boyib borgan.

Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati bir tomonlama ta'sir jarayoni emas. Aksincha, ular o'rtasidagi aloqa tarixiy davrlar mobaynida uzluksiz davom etgan ijodiy muloqot xususiyatiga ega. Folklorida shakllangan obraz va motivlar yozma adabiyotda qayta ishlangani kabi, mumtoz adabiyotda sayqallangan ayrim syujet, obraz va poetik shakllar ham xalq orasida qayta ommalashib, og'zaki irod muhitida yangi variantlar kasb etgan. Shu bois o'zbek adabiy tafakkurining taraqqiyotini xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotning o'zaro ta'siri va davomiyligidan ajratib tasavvur etish qiyin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodining o'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni, ularning o'zaro ta'siri, badiiy-estetik vorisiyligi hamda folklor an'alarining yozma adabiyotdagi transformatsiyasi o'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo, bir tomondan, xalq og'zaki ijodining milliy badiiy tafakkur shakllanishidagi mavqeyini, ikkinchi tomondan esa yozma adabiyotning xalq estetik tajribasini o'zlashtirish va qayta talqin etish jarayonlarini o'rganishni taqozo etadi. Shu ma'noda mumtoz adabiyot va folklor munosabati masalasi alohida ijodkorlar misolidagina emas, balki adabiy jarayonning tarixiy tadrijiyligi va milliy badiiy tafakkurning uzluksizligi nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilgan.

O'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodining janriy tabiati, poetik xususiyatlari, obrazlar tizimi va milliy badiiy tafakkur bilan aloqasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar mazkur masalaning nazariy asoslarini belgilab berdi. T. Mirzayev, K. Imomov, B. Sarimsoqov, O. Safarov, M. Jo'rayev, O. Sobirov [1] kabi olimlarning tadqiqotlarida xalq ijodining janrlar tizimi, epik va lirik tafakkur xususiyatlari, an'anaviy obraz va motivlar, ijodkorlik hamda folklorning tarixiy-madaniy asoslari keng yoritilgan. Ularda xalq og'zaki ijodining an'anaviylik, jamoaviylik, variantlilik, obrazlilik kabi muhim xususiyatlari bilan bir qatorda, folklor matnlarining xalq dunyoqarashi va milliy tafakkur bilan uzviy munosabatiga e'tibor qaratiladi. Bu qarashlar mumtoz adabiyotda folklor an'alarining namoyon bo'lishini faqat tashqi ta'sir sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-estetik vorisiylik natijasi sifatida baholash imkonini beradi.

Mazkur nazariy va amaliy tadqiqotlar o'zbek adabiyotida folklor va yozma adabiyot munosabatining tarixiy-estetik asoslari ancha keng o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq ushbu masalaning XX asr o'zbek adabiyotidagi muayyan ijodkorlar badiiy tafakkuri bilan bog'liq xususiyatlari, xususan, mumtoz adabiy an'alar bilan xalq og'zaki ijodi elementlarining bir butun estetik tizim sifatida namoyon bo'lishi masalasi har bir ijodkor misolida alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Shuhrat ijodi mazkur masalani o'rganish uchun muhim adabiy material beradi. Adibning she'riy, nasriy va dramatik asarlarida xalq og'zaki ijodiga xos syujet va motivlar, maqol-matallar, xalqona iboralar, an'anaviy obrazlar, milliy xarakter belgilari hamda folklor poetikasi elementlari turli badiiy vazifalarda qo'llangan [2]. Ayni paytda uning ijodida mumtoz adabiyot an'analari, xususan, lirik tafakkur, an'anaviy obrazlar tizimi, g'azal va ruboiy kabi janrlarga xos poetik prinsiplar, ishq, vafo, hijron, vatan, inson qadri, ma'naviy komillik singari azaliy mavzular zamonaviy ijtimoiy-estetik mazmun bilan uyg'unlashgan.

Shuhrat ijodining o'ziga xosligi shundaki, adib xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotdan tayyor badiiy qolip sifatida foydalanmaydi. U mazkur an'analarni zamonaviy inson tafakkuri, milliy xarakter va davr voqeligi bilan uyg'unlashtirib, ularga yangi mazmun va estetik vazifa yuklaydi. Shu ma'noda uning ijodida folklorizmni faqat folklor elementlarining asar matniga kiritilishi sifatida emas, balki milliy badiiy tafakkurning tarixiy xotirasi va zamonaviy ijodiy idroki o'rtasidagi bog'lovchi mexanizm sifatida baholash mumkin.

Ayniqsa, Shuhrat she'riyatida mumtoz lirika an'analari bilan xalqona ifoda tarzining uyg'unlashuvi diqqatga sazovordir. Shoirning muhabbat, hijron, vafo, go'zallik, inson qadri va ma'naviy mas'uliyat haqidagi she'rlarida, bir tomondan, mumtoz she'riyatga xos obrazlilik, ramziylik, an'anaviy lirik motivlar ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, xalq qo'shiqlari va og'zaki poetik ijodga xos sodda, ta'sirchan, samimiy ifoda, xalqona iboralar va hayotiy obrazlar tizimi namoyon bo'ladi. Bu holat Shuhrat poetikasini mumtoz va folklor an'alarining o'zaro ta'siri hamda sintezi nuqtayi nazaridan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ham folklorning yozma adabiyotga ta'siri masalasi uning alohida unsurlarining qo'llanishi bilan cheklanmay, badiiy sintez va milliy estetik tafakkurning shakllanishi nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Xususan, folklorizm tushunchasi doirasida folklor motivlari, obrazlari, marosimlari, maqol va matallarining yozma adabiyotda ijodiy qayta talqin qilinishiga e'tibor qaratilmoqda.

Xalq og'zaki ijodi milliy adabiy tafakkurning shakllanishida muhim estetik va ma'naviy manba vazifasini bajaradi. Doston, ertak, afsona, rivoyat, maqol, matal, topishmoq, qo'shiq kabi janrlarda xalqning borliqni anglash usuli, yaxshilik

va yomonlik, adolat va zulm, sadoqat va xiyonat, jasorat va qo'rqoqlik haqidagi tasavvurlari badiiy umumlashtirilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda ham o'zbek folklori namunalarida xalq dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va badiiy tasavvurlari ifodalinishi alohida ta'kidlanadi.

Folklorning adabiy tafakkur uchun ahamiyati, avvalo, uning kollektiv badiiy tajribani saqlash va avlodlardan avlodga yetkazish xususiyati bilan belgilanadi. Og'zaki ijod namunalarida muayyan shaxs ijodkorligi emas, balki avlodlar davomida shakllangan jamoaviy estetik tajriba ustuvor bo'ladi. Shuning uchun folklordagi an'anaviy obrazlar, syujetlar va motivlar muayyan xalqning ma'naviy xotirasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Alpomish obrazida jasorat, vafodorlik, oila va yurtga sadoqat kabi milliy qadriyatlar mujassamlashgan. Go'ro'g'li turkumida esa adolat, erkinlik, el-yurt himoyasi, qahramonlik kabi g'oyalar ustuvorlik qiladi. Bunday epik obrazlar keyingi yozma adabiyot uchun tayyor badiiy qolip bo'libgina qolmay, milliy xarakter va ideal haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Shu nuqtayi nazardan, folklorning adabiyotdagi vazifasini faqat "manba" tushunchasi bilan cheklash yetarli emas. U yozma adabiyot uchun muayyan badiiy tafakkur modelini ham shakllantiradi. Ya'ni folklordan yozma adabiyotga faqat syujet yoki obraz emas, balki voqelikni badiiy idrok etishning muayyan usullari ham o'tadi.

O'zbek mumtoz adabiyotining shakllanish va taraqqiyotida xalq og'zaki ijodining ta'siri turli darajalarda namoyon bo'ladi. Mumtoz shoirlar xalq tili, xalqona obrazlar, maqol va matallar, afsona va rivoyatlar, dostonchilik an'analari, xalq qo'shiqlari va marosim folkloridan ijodiy foydalanganlar. Biroq mumtoz adabiyot va folklor munosabatini oddiy "ta'sir" tushunchasi asosida izohlash biryozlama yondashuvga olib keladi. Chunki mumtoz ijodkor folklor materialini tayyor holda ko'chirmaydi. Uni o'zining estetik maqsadi, janriy talabi va ijodiy konsepsiyasi asosida qayta ishlaydi. Natijada folklor materiali yangi badiiy funksiya kasb etadi.

Shu ma'noda mumtoz adabiyot folklor an'alarini saqlab qoluvchi emas, balki ularni professional poetik tizim doirasida qayta shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Alisher Navoiy ijodi bu jarayonning yuksak namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Navoiy xalq tili va xalq ijodidagi obraziy tafakkur imkoniyatlaridan foydalanib, ularni yuksak adabiy-poetik tizim bilan uyg'unlashtirdi. Bu holat mumtoz adabiyot va xalq ijodi o'rtasidagi munosabatning bir tomonlama emasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, topishmoqning yozma adabiyotda lug'z va chiston kabi shakllarda qayta namoyon bo'lishi ham og'zaki va yozma ijod o'rtasidagi uzviy munosabatni ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi topishmoqlardan boshlab Navoiy, Uvaysiy va Mashrab ijodidagi chistonlargacha bo'lgan jarayon kuzatilib, janrning folklordan mumtoz adabiyotga o'tishi va yangi badiiy-falsafiy mazmun kasb etishi ta'kidlangan. Demak, adabiy taraqqiyotda an'ana tayyor qolip sifatida emas, balki ijodiy qayta ishlanadigan estetik tajriba sifatida yashaydi.

Folklor an'alarining yozma adabiyotga kirib kelishi turli ko'rinishlarda amalga oshadi. Ularni shartli ravishda syujet-motiv, obraz, janr, poetik til va uslub darajasida tasniflash mumkin. Birinchidan, syujet va motivlar o'zlashtiriladi. Xalq ertaklari, dostonlar, afsona va rivoyatlardagi syujetlar yozma adabiyotda qayta ishlanib, yangi ijtimoiy, falsafiy yoki psixologik mazmun kasb etadi. Ikkinchidan, folklor obrazlari yangi badiiy vazifaga ega bo'ladi. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi qahramon, dongdor bahodir, oqil qariya, zolim hukmdor, vafodor yor kabi tiplar yozma adabiyotda murakkab psixologik xarakter darajasiga ko'tarilishi mumkin. Uchinchidan, maqol va matallar badiiy matnda kompozitsion, xarakterologik yoki g'oyaviy vazifa bajaradi. Ular qahramon nutqini individuallashtirishi, milliy koloritni kuchaytirishi yoki muallifning muayyan fikrini xalqona hikmat bilan umumlashtirishi mumkin. To'rtinchidan, folklor poetikasi — takror, parallelizm, mubolag'a, an'anaviy epiteta, ramzlar va formulalar — yozma adabiyotning badiiy tizimiga singdiriladi.

Shuning uchun folklorizmni badiiy matndagi "xalqona bezak" sifatidagina baholash to'g'ri emas. Zamonaviy tadqiqotlarda ham folklor unsurlarining yozma adabiyotdagi vazifasi ijodiy sintez, poetik o'zgarish va kompozitsion yangilanish bilan bog'liq holda izohlanmoqda.

Mumtoz adabiyotning xalq ijodi bilan aloqasi, ayniqsa, til va obraz yaratish sohasida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq tilida shakllangan iboralar, maqollar, hikmatlar va obrazli ifodalar mumtoz shoirlar ijodida yuksak poetik vazifa bajargan. Bu holatni xalqona tafakkurning adabiylashuvi sifatida baholash mumkin. Xalq og'zaki ijodida muayyan hikmat hayotiy tajribaning umumlashmasi sifatida yuzaga kelsa, yozma adabiyotda u qahramon xarakterini ochish, muallif pozitsiyasini ifodalash yoki kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash vositasiga aylanadi. Shu tariqa xalq tili va xalq tafakkuri yozma adabiyotning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, milliy obraz va xarakter yaratishda xalqona ifoda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiy tafakkurining ko'p asrlik taraqqiyotida shakllangan mumtoz va xalq adabiyoti an'analari keyingi davr ijodkorlari uchun muhim estetik tayanch vazifasini bajardi. Ya'ni mumtoz adabiyot va folklorning o'zaro munosabati keyingi adabiy jarayonda ham uzilmagan. Bu an'analarning XX asr o'zbek adabiyotidagi davomiyligi, ayniqsa, milliy adabiy merosga yangicha munosabat shakllangan davrda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda Shuhrat ijodini ham mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq an'anaviy-estetik tajribaning yangi tarixiy va ijtimoiy sharoitdagi davomi sifatida o'rganish mumkin.

Ayniqsa, XX asr adabiyotida folklor syujetlarini zamonaviy mazmun bilan uyg'unlashtirish an'anasi kuchaydi. Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodi motivlarining zamonaviy poetik talqini buning yaqqol misollaridan biridir. Uning "Oygul va Baxtiyor", "Semurg yoki Parizod va Bunyod", "Zaynab va Omon" kabi asarlarida folklor an'analari zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashgani tadqiqotlarda qayd etilgan.

Bu jarayon keyingi ijodkorlar, jumladan, Shuhrat ijodini o'rganish uchun ham muhim metodologik asos bo'la oladi. Chunki Shuhrat badiiy tafakkurini ham faqat bir adabiy manba doirasida emas, balki mumtoz adabiy meros, xalq og'zaki ijodi va zamonaviy estetik tafakkur kesishuvida tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Shuhrat ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri milliy adabiy tajribaning turli qatlamlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirishidir. Uning asarlarida xalqona hayot tarzi, urf-odat, milliy xarakter va og'zaki nutq xususiyatlari bilan bir qatorda, mumtoz adabiyotdan meros bo'lgan ishq, vafo, hijron, inson kamoloti, axloqiy poklik, ma'naviy mas'uliyat kabi tushunchalar ham turli badiiy shakllarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun Shuhrat ijodidagi an'anaviylikni muayyan bir manbaga bog'lash emas, balki mumtoz va xalq badiiy tafakkurining o'zaro uyg'unlashuvi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shuhratning lirik merosida mumtoz she'riyat an'analari, avvalo, janr va obrazlar tizimida ko'rinadi. G'azal, muxammas kabi mumtoz lirik shakllarga murojaat etish shoirning an'anaviy poetik shaklni saqlash istaginigina emas, balki uni zamonaviy mazmun bilan boyitishga bo'lgan intilishini ham anglatadi. Bunda mumtoz janr shakli o'zgarmas qolip sifatida emas, balki yangi fikr va kechinmalarni ifodalash imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, Shuhrat she'riyatida ishq mavzusining talqinida mumtoz an'ananing ta'siri bilan birga, uning individual badiiy yondashuvi ham yaqqol ko'rinadi. Mumtoz adabiyotda ishq ko'pincha insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi, uni sinovdan o'tkazuvchi va ichki dunyosini ochuvchi kuch sifatida talqin etilgan. Shuhratda ham muhabbat inson qalbi, vafo, sadoqat va ruhiy poklik bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Biroq shoir bu kechinmalarni zamonaviy inson hayoti, uning shaxsiy munosabatlari va real ijtimoiy muhiti bilan yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, Shuhrat ijodidagi milliy badiiy tafakkurni mumtoz adabiyot bilangina izohlash yetarli emas. Uning asarlarida xalq og'zaki ijodining ta'siri ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Bu ta'sir, avvalo, xalqona til, maqol va matallar, folklor motivlari, an'anaviy obrazlar, dostonchilik tajribasi va og'zaki hikoyachilik usullari orqali yuzaga chiqadi.

Shuhrat qahramonlarining nutqida xalq tilining tabiiyligi, iboralarning obrazlilik va maqol-matallarga xos hikmatli umumlasmalar muhim badiiy vazifa bajaradi. Xalqona ifoda qahramon nutqini hayotiyalashtirish bilan birga, uning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi va milliy xarakterini ochishga xizmat qiladi. Shu bois Shuhrat asarlarida folklorizmlarning qo'llanilishi faqat milliy kolorit yaratish vositasi emas, balki xarakter yaratish va g'oyaviy mazmunni kuchaytirish usuli sifatida ham ahamiyatlidir.

Xalq og'zaki ijodi bilan aloqa Shuhratning syujet va motivlar tizimida ham kuzatiladi. Xalq ijodiga xos adolat va zulm, ezgulik va yovuzlik, vafo va xiyonat, mardlik va qo'rqqoqlik, el-yurtga sadoqat kabi qarama-qarshi tushunchalar shoir asarlarida zamonaviy ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan uyg'unlashadi. Natijada folklorga xos umumlashgan ma'naviy mezonlar real hayotiy xarakterlar va psixologik holatlar orqali konkretlashadi.

Bu jihat Shuhratning nasriy asarlarida yanada aniqroq ko'rinadi. Xususan, "Oltin zanglamas" [1] romanida xalqning tarixiy xotirasi, milliy xarakter, hayotiy tajriba va ma'naviy qadriyatlar tasvirida xalqona tafakkur unsurlari muhim badiiy vazifa bajaradi. Asardagi qahramonlar xakteri, ularning nutqi, voqealarga munosabati va axloqiy tanlovlari orqali xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy mezonlari badiiy ifodalanadi.

Shu bilan birga, mazkur romandagi inson va jamiyat, vijdon va mas'uliyat, adolat va haqiqat kabi masalalarni mumtoz adabiyotning ma'naviy-axloqiy an'analari bilan ham bog'lash mumkin. Demak, Shuhrat nasrida xalqona tafakkur va mumtoz axloqiy-falsafiy qarashlar bir-birini to'ldiruvchi estetik qatlamlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shuhrat ijodida mumtoz va xalq adabiyoti an'alarining birlashishi ayniqsa milliy xarakter yaratish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Mumtoz adabiyot insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy pokligi va ichki dunyosiga e'tibor berish an'anasini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi milliy xarakterning hayotiy, obrazli va umumlashgan shakllarini beradi. Shuhrat esa ushbu ikki manbadan kelib chiqadigan badiiy imkoniyatlarni real hayot materiallari bilan uyg'unlashtiradi. Bu holatni shartli ravishda quyidagi badiiy harakat modeli asosida ifodalash mumkin: mumtoz an'ana + xalqona tafakkur + zamonaviy hayot materiali → yangi badiiy obraz.

Mazkur model Shuhrat ijodida an'ananing qanday qilib individual badiiy uslubga aylanishini ko'rsatadi. Shoir mumtoz adabiyotdan tayyor obraz yoki g'oyani, xalq ijodidan esa tayyor syujet yoki iborani mexanik ravishda ko'chirmaydi. Ularni yangi estetik maqsad asosida qayta ishlaydi. Shuning uchun Shuhrat ijodidagi an'anaviylikni takror emas, ijodiy o'zlashtirish tushunchasi orqali baholash to'g'ri bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, Shuhratning mumtoz adabiyot bilan munosabati ham, xalq og'zaki ijodi bilan aloqasi ham ikki bosqichli jarayon sifatida ko'rinadi. Birinchi bosqichda ijodkor milliy adabiy xotirada mavjud obraz, motiv, janr va poetik vositalarni qabul qiladi. Ikkinchi bosqichda esa ularni o'zining badiiy konsepsiyasiga mos ravishda qayta talqin qiladi. Aynan ikkinchi bosqich ijodkorning individual mahoratini belgilaydi.

Shuningdek, Shuhrat ijodida mumtoz va folklor an'analari bir-biridan ajralgan ikki qatlam sifatida emas, ko'p hollarda o'zaro ta'sirga kirishgan yaxlit milliy estetik tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, mumtoz adabiyotga xos lirik obraz xalqona ibora bilan ifodalanishi yoki xalq motivi mumtoz poetik ramz bilan uyg'unlashishi mumkin. Bunday holatda ikki manbaning har biri o'z mustaqil xususiyatini saqlagan holda, yangi badiiy mazmun hosil qiladi.

Shuhrat ijodining milliylik ham ana shu sintez jarayoni bilan uzviy bog'liq. Unda milliylik faqat urf-odat, milliy libos, marosim yoki xalqona so'zlarni tasvirlash orqali emas, balki fikrlash tarzi, axloqiy mezon, insonga munosabat, obraz yaratish prinsipi va badiiy umumlashtirish usuli orqali namoyon bo'ladi. Bu esa milliy badiiy tafakkurning chuqur qatlamlarini tashkil etuvchi mumtoz va folklor an'alarining ijodkor poetikasida qayta namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbek adabiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyotida mumtoz adabiyot hamda xalq og'zaki ijodi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki muhim estetik manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi milliy dunyoqarash, tarixiy xotira, axloqiy-estetik qadriyatlar va badiiy obrazlar tizimining dastlabki shakllarini yaratgan bo'lsa, mumtoz adabiyot ushbu tajribani yuksak poetik tizim asosida qayta ishlab, uning janriy va estetik imkoniyatlarini kengaytirdi. Mumtoz adabiyotning xalq ijodi bilan munosabati oddiy ta'sir yoki taqlid emas, balki ijodiy o'zlashtirish, qayta talqin va estetik

sintez jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Folklor obrazi, motivi, janri yoki poetik usuli yozma adabiyotga kirib kelganda yangi badiiy vazifa kasb etadi; mumtoz adabiyotda shakllangan poetik an'analar esa xalq estetik tafakkuri bilan uyg'unlashib, keyingi adabiy jarayon uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, Shuhrat ijodida mumtoz va xalq adabiyoti an'analari o'rtasidagi munosabatni vorislik va ijodiy transformatsiya tamoyillari asosida baholash mumkin. Mumtoz adabiyot Shuhratga yuksak poetik shakl, obraziy tafakkur va ma'naviy-falsafiy umumlashtirish an'alarini bergan bo'lsa, xalq og'zaki ijodi unga milliy hayotning tabiiy ruhi, xalqona til, xarakter va obraz yaratishning o'ziga xos imkoniyatlarini taqdim etadi. Ijodkorning mahorati esa ana shu ikki manbani zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirishida namoyon bo'ladi.

Demak, Shuhrat ijodini mumtoz va xalq adabiyoti an'alarining oddiy davomi sifatida emas, balki ularning ijodiy sintezi asosida shakllangan o'ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv shoir va yozuvchi ijodida an'ana va novatorlik munosabatini, milliy badiiy tafakkurning davomiyligini hamda adabiy merosning yangi tarixiy sharoitda qayta talqin etilish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev T. *Xalq baxshilarining epik repertuari*. – Toshkent: Fan, 1979. – 152 b.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 304 b.
3. Sarimsoqov B. Folklor va o'zbek adabiyotiga doir izlanishlar // *O'zbek tili va adabiyoti*. – Toshkent, 1975. – № 5. – B. 33–37.
4. Sobirov O. O'zbek sovet adabiyotida folklor va folklor an'analari // *O'zbek sovet folklori masalalari*. 1-kitob. – Toshkent, 1970. – B. 125–143.
5. Jo'rayev M. *Folklorshunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2009. – 192 b.
6. Sobirov O. *Sarchashma adib ijodida*. – Toshkent: Fan, 1975. – 68 b.
7. Jamol Kamol. Shuhrat she'rining uslubiy xususiyatlari // *Lirik she'riyat*. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 143.
8. Normatov U. *Shuhrat: adabiy portret*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969. – 120 b.
9. Soatova N. *Shuhrat adabiy merosida an'ana va mahorat*. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2022. – 202 b.
10. Soatova N. Shuhrat ijodida folklor an'analari // *O'zbek tili va adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 2011. – № 5. – B. 72–74.
11. Soatova N. Shuhrat she'riyatida xalq ohanglari // *Adabiyot ko'zgusi: ilmiy to'plam*. – Toshkent: O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2009. – № 11. – B. 72–74.
12. Soatova N. An'ana va izdoshlik // *Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi № 11 ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari*. – Toshkent: TDSHI, 2014. – B. 316–318.
13. Soatova N. Shuhrat va folklor // *O'zbek tili va adabiyoti tarixi, tadrijiy taraqqiyotining o'rganilishi: natijalar va muammolar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari*. – Jizzax, 2021. – B. 32–35.
14. Shuhrat. *Oltin zanglamas*. – Toshkent: Sharq, 1995. – 400 b.